

## BO‘LG‘USI CHQBT O‘QITUVCHILARINI HARBIY VATANPARVARLIK TARBIIYASINI MUSTAXKAMLASHGA QARATILGAN IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

**Najmiddinov Muzaffar Kamolitdinovich**

*FarDU Harbiy ta’lim fakul’teti oqituvchisi*

**Toxtanazarov Ilxom Ibragimjanovich**

*FarDU Harbiy ta’lim fakul’teti oqituvchisi.*

SHiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining ayniqsa yosh avlodning, mardlik va vatanparvarlik, ona vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirishga yo‘naltirilgan kenga ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimi sohasida xam Farg‘ona davlat universiteti, Buxoro davlat pedagogika institutida, Toshkent davlat pedagogika institutida qoshida harbiy ta’lim fakultlari mavjud. Ushbu fakultet bitiruvchilari tomonidan o‘tadigan CHQBT fani chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. SHu bilan bir qatorda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinf o‘quvchilari, o‘rta maxsus xamda boshlangich professional ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi o‘quvchi-yoshlarni xaqiqiy harbiy xizmatga tayyorlash bo‘yicha rejali ishlar amalga oshirmoqda.

Harbiy ta’limdan ko‘zlangan bosh maqsad Vatanga muhabbatli va sadoqatli, ma’naviy-axloqiy etuk, professional tayyorgarlikka ega bo‘lgan zahiradagi ofitser kadrlarni tayyorlashga qaratilgandir.

Olib borilayotgan isloxlarga qaramasdan oliy ta’lim muassasalaridagi harbiy o‘quv bo‘linmalarida dolzarb hisoblanib, o‘z echimini kutayotgan vazifalar quyidagilardan iborat:

- zamon talablariga va harbiy faoliyatga qiziqqan kadrlarni tanlab olish va tayyorlash;
- ta’lim oluvchilarni har tomonlama va uyg‘un shaxs sifatida tarbiyalash, ularda yuksak vatanparvarlik, ma’naviy-axloqiy va harbiy-ixtisoslik sifatlarini shakllantirish;
- davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash masalalarini hal etish va zahiradagi ofitser kadrlarni tayyorlashni takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil qilish va o‘tkazish;
- zahiradagi ofitserlarni ko‘p bosqichli tizimda tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

- harbiy nazariya va amaliyot sohasida fundamental, tadqiqiy va amaliy tadqiqotlarni tashkil etish, o'tkazish va ularni muvofiqlashtirish;
- mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalar, davriy nashrlar, o'quv-uslubiy materiallar va ilmiy ishlarni tayyorlash va chop etish;
- yurtimizdagi oliy harbiy ta'lim muassasalari, universitetlar va ilmiy markazlar bilan ilmiy hamda amaliy aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash va ular bilan o'zaro tajriba almashishni yo'lga qo'yish;
- harbiy fanlar va harbiy ta'lim sohasi bo'yicha ilmiy, ilmiy-amaliy va uslubiy konferensiya va seminarlar tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va davlatimiz raxbariyati tomonidan yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruvida tarbiyalashga qaritilgan yangi qaror va farmonlar chiqarilib bormoqda. Bunga misol qilib 2023 yil 29-iyundagi Vazirlar Maxkamasining №267 qarori bilan belgilangan "2023 — 2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi"- xamda "Ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risida" 351 qarorlarni aytishimiz mumkin.

Konsepsiyada belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida vazirlik va idoralar tomonidan quyidagi asosiy vazifalar amalga oshirilishi belgilab qo'yildi:

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya — yoshlar siyosatiga doir davlat dasturlarini amalga oshirish doirasida yoshlar bilan harbiy-vatanparvarlik, madaniy-hordiq, ma'naviy-ma'rifiy va ommaviy-sport tadbirlarini, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi qaratilgan targ'ibot-tashviqot, huquqiy madaniyat va huquqiy ongni oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish;

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi — oliy ta'lim muassasalarida harbiy-vatanparvarlik tadbirlari samarali o'tkazilishini hamda ushbu tadbirlarda barcha talabalarning to'liq qamrab olinishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi YOshlar siyosati va sport vazirligi — Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar tomonidan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular bilan o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy, harbiy-vatanparvarlik, madaniy-hordiq, ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish va o'tkazilishida har tomonlama yordam ko'rsatish hamda yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarziga rioya etish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

YUqoridagi qaror va nizomlarda ko'rsatilgan talablardan kelib chiqqan holda bizning Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakultetida maxsus kutubxonalar,

o'quv sikllari qoshidagi maxsus jixozlangan uslubiy xonalar va o'quv maydonlari samarali faoliyat olib bormoqda va bu o'quv moddiy bazalardan unumli foydalangan holda talabalarning olgan nazariy bilimlari asosida amaliy mashg'ulotlar o'tkazilib kelinmoqda. Bu o'quv joylarida ixtisoslik bo'yicha ham, umumiy yo'nalish bo'yicha ham maxsus joylar tayyorlangan bo'lib, talabalar kasbiy va harbiy malakalarni egallashlari uchun ulardan keng foydalanib kelmoqdalar. O'quv mashqlarini nazorat qilish, kerakli maslahatlarni berish fakultetdagi chuqur bilimli, malakali mutaxassislarning zimmasiga yuklatilgan bo'lib, mas'ul o'qituvchi-ofitserlar olib borilayotgan ishlarning yutuq va kamchiliklari yuzasidan talabalar bilan o'rtoqlashib o'zlarini maslaxat va tavsiyalarning berib kelishadi xamda vazifalarni ijobiy hal qilishlarida ko'maklashadilar. Bu albatta malakali kadrlarni tayyorlashda samarali yordam bermoqda.

Kuni kecha universitet yoshlar bilan ishlash agentligi xamda ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'limi tomonidan talabalarni qishki ta'til davrini mazmunli o'tkazishlari bo'yicha fanlar bo'yicha qishki olimpiada tashkillandi. Bunda bizning harbiy ta'lim fakulteti talabalari xam onlayin tarzida CHXT yo'nalishi bo'yicha olimpiadada faol qatnashdilar.

Olimpiada CHQBT fani bo'yicha test savollari onlayn tarzda qatnashayotgan 1-3-kurs talabalariga tarqatildi va ularni javoblar universitetning ARM(axborot resurslari markazi)da fakultetimizning uslubiyot sikli professor-o'qituvchilari tomonidan nazorat qilindi xamda javoblar bo'yicha ballar belgilandi.

O'tkazildgan fan olimpiadasida maqsad talabalarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish xamda olgan bilimlarini mustaxkamlash qolaversa o'zlariga bo'lgan ishonchni ortirishdan iborat.

- Yangi hayot beqiyos o'zgarishlar hammamizdan fidoyilik va bunyodkorlikni, yanada katta safarbarlikni talab etmoqda. Bu yo'lda biz pedagoglar o'zimizning bilmimiz bilan mamlakatimizni tinchligi va osoyishtaligi yo'lida halqimizning farovonligi uchun xarakat qilmog'imiz, yangi avlod kadrlarini etishtirish, yoshlarni tashabbuskor, bunyodkor, vatanparvarlik kabi g'oyalari bilan kasb-hunarga yo'naltirishimiz zarurdir. Albatta bunda nafaqat pedagoglar va tuyuter (murabbiy)lar balki barcha davlat tashkilotlari, ota-onalar hamkorlikda talaba-yoshlarning umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash barchaning bugunki kundagi dolzarb vazifasidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. “YAngi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi” Toshkent: O‘zbekiston, 2022 y. 4-27 b
2. “2023-2027 yillar yoshlar harbiy- vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konspensiyasi”. Vazirlar mahkamasining 2023 yil 29 iyundagi 267-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2023 yil 8-noyabrdagi №591-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomi”
4. Ibragimov A.I. Sulstonov X.X. “Vatan tuyg‘usi” asari Toshkent 1996 y
5. Madaliev R. “Talaba – yoshlarning xarbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarining ahamiyati” FarDU ilmiy xabarlari 2023 y. №1son 51-54 b.
6. Mamadaliyev U.O. “Yoshlarni harbiy –vatanparvarlik ruxida tarbiylash tizimini rivojlantirishda innavatsion yondashuv” mavzusidagi Respublika ilmiy amaliy anjumani 21-iyun, 2023-yil 11-16-b.
7. SH.X.Tillavoldiev. “Xarbiy vatanparvarlik tarbiyasi asoslari” darslik. Farg‘ona-2023 yil.